

2020-yil yanvar oyida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'rni, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020-yil yanvar oyida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari




* 2019-yil yanvar-dekabr

Xizmatlar sohasining jadal o'sishi yangi faoliyat turlari va investitsion imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda kredit-moliyaviy, axborot, telekommunikatsiya, tibbiy, intellektual va ko'ngilochar xizmatlar bozorlari rivojlanmoqda.

Xizmatlar sohasi — bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.


Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil 1-fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 11,2 mingtaga yetdi yoki ularning umumiy sonining 64,4 % ini tashkil etdi. 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 55,8 % ga oshdi.

2020-yil 1-fevral holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (46,9 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,0 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,7 % ga teng bo'ldi.

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019-yil 1-fevral holatiga, xizmatlar sohasida 7,2 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 32,0 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,2 %, tashish va saqlash - 6,6 %, axborot va aloqa - 2,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,2 %, boshqa turlar - 43,8 % ni tashkil etgan.

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funktsiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari



Xizmatlar hajmi -
408,5
mlrd. so'm

Hajmning o'sishi -
80,6
mlrd. so'm

O'sish sur'ati -
111,6 %


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 408,5 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 80,6 mlrd. so'mga oshdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil moliyaviy xizmatlar 40,1 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmining mutloq o'sishiga ta'siri 7,9 % punkt), savdo xizmatlari 3,4 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,9 % punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 19,1 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,8 % punkt), me'morchilik sohasidagi xizmatlar 17,8 % (mutloq o'sishiga ta'siri 0,7 % punkt), transport xizmatlari 3,4 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,5 % punkt) o'sishi hisoblanadi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga, xizmat turlari bo'yicha mutloq ta'siri, f.p.



Daslabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar oyida ularning ulushi 31,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (22,5 %), transport xizmatlari (16,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,9 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar oyida)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmining bir oz oshishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,2 % ga yetdi. Shuningdek, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,6 %, shu bilan birga, ijara xizmatlari - 1,8 % va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar - 2,0 % ni tashkil etib, ularning jami xizmatlar tarkibidagi ulushlari nisbatan past ekanligi qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020-yil yanvar oyida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	408,5	111,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	19,9	119,1
Moliyaviy xizmatlar	92,0	140,1
Transport xizmatlari	68,5	103,4
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	60,3	106,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	16,5	106,2
Savdo xizmatlari	129,0	103,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	8,0	100,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	9,9	109,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	4,8	110,0
Ijara xizmatlari	7,4	90,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	6,7	102,6
Shaxsiy xizmatlar	10,8	104,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	17,5	117,8
Boshqa xizmatlar	17,5	108,1


Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmini oshishiga olib keladi.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, 2019-yil yanvar oyiga nisbatan % da (2020-yil yanvar oyida)

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (140,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (119,1 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (117,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,0 %), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda (109,0 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish ijara xizmatlari (90,7 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (100,6 %) va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (102,6 %) da kuzatildi.



Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 31,6 % ni tashkil etib, bu 129,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi 16,6 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020-yil yanvar oyida)

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt-dan uch qismiga aniqrog'i 84,1 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar oyida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 8,5 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.


Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar (2020-yil yanvar oyida)



2020-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 92,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,7 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 40,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,9 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,3 % oralig'ida qayd etildi.




Moliyaviy xizmatlar hajmi, moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas va u 1,8 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 88,1 % ni tashkil etadi.

Transport turlari bo'yicha avtomobil transport xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar oyida)



Transport xizmatlarida yo'lovchi tashish xizmati asosiy ulushga ega bo'lib, ko'rsatilgan avtomobil transport xizmatlarining hajmi 63,8 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida, yuk tashish xizmatlari ko'rsatilgan xizmatlarning 36,2 % qayd etadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda keng interfaol xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2020-yil yanvar oyida)



**Xizmatlar hajmi -
19,9 mlrd. so'm**




**2019-yil yanvar oyiga
nisbatan o'sish sur'ati -
119,1 %**



**Xizmatlarning jami
hajmidagi ulushi -
4,9 %**

2020-yil yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 19,9 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 119,1 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar oyida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,2 %, nashriyotchilik xizmatlari - 1,2 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,9 % va boshqa aloqa xizmatlari - 0,1 % ni tashkil etdi.


Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2020-yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 9,9 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi. 2019-yil yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yil yanvar oyida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 2,3 mlrd. so'mga oshdi va 16,5 mlrd. so'mga yetdi.



72,4 %

• Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

• Yashash bo'yicha xizmatlar

27,6 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiy hajmda oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 72,4 % bilan ustunlik qiladi.

2020-yil yanvar oyida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 27,6 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugun viloyatimizning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar oyida)

2020-yil yanvar oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 0,8 mlrd. so'mga oshdi va 4,8 mlrd. so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,0 % ni tashkil etdi.



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 413,3 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -
413,3 ming so'm

2019-yil yanvar oyiga nisbatan



Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-84-37; 79-223-63-31